

OMMAVIY OFERTA

**«O‘qish bilimdan ko‘proq narsani olib kelganda» tanlovini o‘tkazish haqida
(bundan buyon – «Qoidalar»)**

Toshkent shahri, 2025-yil 3-sentabr

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Qoidalar «O‘qish bilimdan ko‘proq narsani olib kelganda» nomli rag‘batlantiruvchi aksiyani/tanlovni (bundan buyon – «Aksiya») «Bilimxona» ta‘lim servisida o‘tkazishni tartibga soladi. Servis quyidagi manzilda mavjud: <https://osnovaedu.uz/otp-bilimxona/uz>. Aksiya yakunida qimmatbaho sovg‘alar taqdim etiladi.

1.2. Aksiya ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari orasida o‘tkaziladi hamda ta‘lim va ta‘limiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan.

1.3. Aksiya lotereya, qimor o‘yini yoki tavakkalchilikka asoslangan o‘yin emas. Aksiyada ishtirok etish bepul bo‘lib, hech qanday to‘lovni nazar tutmaydi.

2. Aksiyaning Tashkilotchisi

2.1. Aksiyaning tashkilotchisi (bundan keyin - «Tashkilotchi»): «Ipoteka-bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka banki, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxs. Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Shahrisabz ko‘chasi, 2-uy. Ro‘yxatdan o‘tish raqami: 55/25. STIR: 202858483. Telefon: +998 (78) 150-11-22, elektron pochta manzili: info@ipotekabank.uz.

3. Aksiyani o‘tkazish muddati

3.1. Aksiya 2025-yil 3-sentabrdan 29-sentabrgacha davom etadi.

3.2. G‘oliblarni aniqlash muddati: 2025-yil 30-sentabrdan kechiktirmasdan.

3.3. Tanlov g‘oliblari 2025-yil 30-sentabr kuni Tashkilotchining rasmiy Instagram sahifasida jonli efirda e‘lon qilinadi: <https://www.instagram.com/ipotekabank.uz/>
Natijalar keyinchalik Telegram kanalida ham e‘lon qilinadi: <https://t.me/ipotekabankofficial>.

3.4. Sovrinlarni topshirish muddati: 2025-yil 31-dekabrgacha. Sovrinlar 2.1-bandda ko‘rsatilgan manzilda topshiriladi. Uzoq hududlarda istiqomat qiluvchi g‘oliblarning iltimosiga ko‘ra, sovrinlar pochta xizmati, logistika yoki kuryer kompaniyalari orqali yuborilishi mumkin. Belgilangan muddatda sovrinni qabul qilib olmagan ishtirokchi sovrindan voz kechgan hisoblanadi.

3.5. Barcha muddatlar Toshkent shahri (O‘zbekiston Respublikasi) vaqti bilan belgilangan.

4. Platformalar va xabardor qilish

4.1. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida Tashkilotchining quyidagi rasmiy platformalarida o‘tkaziladi:

— Telegram: <https://t.me/ipotekabankofficial>

— Instagram: <https://www.instagram.com/ipotekabank.uz/>

— Facebook: <https://www.facebook.com/ipotekabankofficial>

4.2. Tashkilotchi istalgan vaqtda Aksiya shartlarini o‘zgartirish va/yoki to‘ldirish, uni muddatidan oldin tugatish, qo‘shimcha ma‘lumotlarni e‘lon qilish huquqiga egadir. O‘zgarishlar Tashkilotchining rasmiy platformalarida e‘lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

4.3. Qoidalarga kiritilgan har qanday o'zgarishlar Tashkilotchining platformalarida e'lon qilinadi va o'sha paytdan boshlab amal qiladi.

5. Aksiya ishtirokchilari

5.1. Aksiyada 18 yoshga to'lgan, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy istiqomat qiluvchi, qonunchilik talablariga muvofiq ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar qatnashishi mumkin.

5.2. Quyidagilar ishtirok eta olmaydi:

- Tashkilotchining xodimlari;
- Tashkilotchiga aloqador shaxslar;
- Tashkilotchi bilan fuqarolik-huquqiy yoki boshqa munosabatlarga ega bo'lgan uchinchi tomon xodimlari va vakillari;
- Yuqoridagi shaxslarning yaqin qarindoshlari (ota-onalar, farzandlar, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar, opa-singillar);
- Qoidalarga rioya qilmagan shaxslar.

5.3. Agar ushbu bandlarga mos kelmaydigan shaxslarning ishtiroki aniqlansa, Tashkilotchi ularni Aksiyadan chetlashtirish va/yoki sovrin bermaslik huquqiga ega bo'ladi.

5.4. Ishtirokchining ijtimoiy tarmoqdagi akkaunti Aksiya davomida ochiq holda bo'lishi shart.

6. Sovrinlar jamg'armasi

6.1. Sovrinlar Tashkilotchi va/yoki hamkorlar mablag'lari hisobidan shakllantiriladi.

6.2. Sovrinlar tarkibi:

- "Alisa" ovozi yordamchisi o'rnatilgan Yandex Stantsiya Lite aqlli kalonka - 1 dona;
- Uchtagacha qurilmani quvvatlay oladigan stol usti simsiz quvvatlash qurilmasi - 2 dona;
- 0,5 litrlik brendlangan termoslar - 2 dona.

6.3. Sovrinlarning tashqi ko'rinishi va xususiyatlari rasmiy tasvirlardagidan farq qilishi mumkin. Sovrinlarning pul ekvivalenti berilmaydi, ularni almashtirish imkoniyati yo'q.

7. Aksiyada ishtirok etish tartibi

7.1. Ishtirok etish uchun 2025-yil 3–29-sentabr oralig'ida:

- Bilimxona platformasida (<https://osnovaedu.uz/otp-bilimxona/uz>) ro'yxatdan o'tish va kamida bitta onlayn kursni yakunlash lozim.

7.2. Sovrinlar quyidagicha taqsimlanadi:

- Aqlli kolonka «Alisa» (1 dona) va stol usti zaryadlovchi qurilmalar (2 dona) – kamida bitta kursni tugatgan barcha ishtirokchilar orasidan tasodifiy tanlov asosida;
- Termoslar (2 dona) – eng ko'p kurs tugatgan ikki nafar faol ishtirokchiga.

7.3. Agar bir nechta ishtirokchi bir xil miqdordagi kursni tugatgan bo'lsa, Tashkilotchi qo'shimcha mezon (masalan, oxirgi kursni yakunlash vaqti, platformadagi faollik) qo'llashi yoki qo'shimcha tanlov o'tkazishi mumkin.

7.4. Kurs tugatilgan hisoblanishi uchun Bilimxona tizimida kursning barcha modullari yakunlangan va sertifikat olingan bo'lishi shart.

7.5. Platforma qoidalarini buzgan, soxta hisob ochgan yoki natijalarni sun'iy ravishda oshirishga uringan shaxslar Aksiyadan chetlashtiriladi.

8. G'oliblarni aniqlash

8.1. G'oliblar tasodifiy tanlov orqali jonli efirda, ekran yozuvi bilan qayd etilgan holda aniqlanadi.

8.2. G'oliblar ro'yxati 2025-yil 30-sentabrdan kechiktirmasdan Instagram (<https://www.instagram.com/ipotekabank.uz/>) sahifasidagi "stories" bo'limida e'lon qilinadi.

8.3. Aloqa o'rnatib bo'lmaganda yoki Qoidalar buzilgan hollarda Tashkilotchi zaxira g'oliblarni belgilaydi.

8.4. Tashkilotchi g'oliblarga 48 soat ichida tegishli platformadagi shaxsiy xabarlar orqali xabar yuboradi. Agar g'olib shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga rozilik bermasa yoki roziligini qaytarib olsa, qo'ng'iroqlarga yoki xabarlarga javob bermasa, Tashkilotchi uni sovrindan mahrum qilish va sovrinni zaxira g'olibga topshirish huquqiga ega bo'ladi.

8.5. Sovrinni olish uchun g'olib quyidagilarni taqdim etishi shart: pasport yoki Yashash guvohnomasi, STIR, PINFL, zarurat tug'ilganda bank rekvizitlari.

9. Sovrinlarni topshirish va soliqqa tortish

9.1. Sovrinlar O'zbekiston Respublikasi hududida topshiriladi.

9.2. Sovringa egalik huquqi topshirish vaqtida o'tkaziladi. Uchinchi shaxsga berish faqat notarial tasdiqlangan ishonchnoma orqali amalga oshirilishi mumkin.

9.3. Tashkilotchi soliq agenti sifatida sovrin qiymatidan jismoniy shaxslarning daromad solig'i va qo'shilgan qiymat solig'ini (agar qo'llaniladigan bo'lsa) to'laydi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 365-, 368-, 370-, 377-moddalariga muvofiq).

10. Javobgarlikni cheklash

10.1. Tashkilotchi ijtimoiy tarmoqlar, aloqa operatorlari, internet provayderlari faoliyatidagi texnik nosozliklar uchun, shuningdek ishtirokchilarning postlarini o'chirish yoki ularga kirish imkoniyati bo'lmagani uchun javobgar hisoblanmaydi.

10.2. Sovrinlar soni cheklangan. Pul ko'rinishidagi kompensatsiya ko'zda tutilmagan.

10.3. Qoidalarni buzgan, bot-xizmatlardan foydalangan yoki natijalarni sun'iy ravishda o'zgartirgan ishtirokchilarga sovrin berilmaydi.

10.4. Fors-major holatlari yuz berganda Aksiya shartlari o'zgartirilishi, to'xtatilishi yoki vaqtinchalik to'xtatib turilishi mumkin.

11. Shaxsiy ma'lumotlar

11.1. Aksiyada ishtirok etish orqali ishtirokchi o'z shaxsiy ma'lumotlarini O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq qayta ishlashga rozilik beradi.

11.2. Ishtirokchi Tashkilotchiga o'z ismi, surati va fikr-mulohazalarini hududiy yoki vaqt cheklovlarisiz hamda qo'shimcha haq to'lamasdan marketing maqsadlarida foydalanish uchun

ruxsat beradi.

11.3. Ishtirokchi shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga bergan roziligini <https://otp.osnovaedu.uz/> platformasidagi qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish orqali qaytarib olishi mumkin. Bunday hollarda Aksiyada ishtirok etish va sovrinni qo'lga kiritish imkonsiz bo'lishi mumkin.

12. Yakuniy qoidalar

12.1. Aksiyada ishtirok etish Qoidalarini to'liq qabul qilganlikni anglatadi.

12.2. Tashkilotchi Qoidalar va muddatlarga o'zgartirish kiritishi hamda ularni rasmiy maydonchalarda e'lon qilishi mumkin. O'zgarishlar e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

12.3. Nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Tashkilotchi tomonidan hal qilinadi.

12.4. Ushbu Ommaviy oferta Aksiya yakuniga qadar amal qiladi.